



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING MUAMMOLARI

**Andijon shahar pedagogika kolleji**

**oliy toifali ingliz tili fani o'qituvchi**

**Yoqubova Nargiza Odiljon qizi**

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada boshling'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda duch keladigan ba'zi muammolar hamda ushbu muammolarni bartaraf etish usullariga bag'ishlanadi;

**Kalit so'zlar:** o'qish texnikasi, yozish texnikasi, kasbiy kompetentsiya, dikoding, inkoding, grafikli fonetika, fonetik mezon, an'anaviy mezon, ieroglyph;

### **Annotatsiya**

This article deals with some problems encountered in teaching English to elementary school students and ways to overcome these problems;

**Key words:** reading technique, writing technique, professional competence, decoding, encoding, graphic phonetics, phonetic criterion, traditional criterion, hieroglyph;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohalarini rivojlantirish to'g'risida"gi Qarorida boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga xorijiy tillarni o'qitish va ularning dastlabki nutqiy malakasini shakllantirish vazifasi qo'yilgan. Mazkur vazifa doirasida yangi metodik tavsiyalar, ko'rsatmalar va o'quv materiallari ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Boshlang'ich ta'limda Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy ish tillari bo'lgan ingliz, rus, frantsuz, ispan va arab tillarini o'qitish, mazkur xalqaro tillar guruhi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tillarni o'rganish ko'nikmasini hozirgi zamon talablari asosida shakllantirish vazifasi turibdi. Shu sababli 2020-2021 o'quv



yildan boshlab boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitishning yangi o'quv dasturi, o'quv materiallari va lug'atlar amalga kiritildi. Mazkur yangi o'quv materiallari davlat talablari darajasida tayyorlangan bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, jismoniy, aqliy, ruhiy va estetik xususiyatlari hisobga olingan. Ayni paytda, yaratilayotgan yangi o'quv materiallarini va xorijiy tillarni o'qitish jarayonini tizimlashtirish muammosi mavjud. Chunki tizim xorijiy tillarni boshlang'ich sinflarda o'qitishning o'ziga xos shakllarini ishlab chiqish va unda o'quvchi shaxsining imkoniyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Shu sababli bu o'rinda boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishga doir yangicha yondashuvlar tizimi masalasiga e'tiboringizni tortamiz.

Prezidentimizning qaroriga ko'ra chet tillarini o'qitishni birinchi sinfdanoq boshlash yo'lga qo'yildi. Endi chet tilini o'qitishda boshqacha talab, yangicha yondashuv, shuningdek yosh bolalarning ruhiyatidan kelib chiqqan holda yangi texnologiya va uslub yaratish zaruriyati tug'ildi. Dastlab yangi, mukammal darslik yaratish va darslikka oid ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish ustida dasturlar ishlab chiqildi. Eng muhim chet tili ona tili bo'limganligidan quyi sinf o'quvchilarining zeriktirib qo'ymaydigan o'yinli darslar o'tilishi yo'lga qo'yildi. Albatta bu ishlar birdaniga amalga oshirilgani yo'q. Dastavval, yaratilgan darslik ayrim belgilangan joylarda tajribalar o'tkazildi va kamchiliklar aniqlanib tegishli xulosalar qilindi.

Birinchi sinflarda chet tilini o'qitishni yo'lga qo'yilishi eng muhim qadamlardan bo'lib hisoblansa, quyi sinflarda chet tilini o'qitishning yangicha usulda o'qitish ham asosiy muammolardan biridir. Chunki mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq barcha sohalarda bo'lgani kabi chet tillarini o'qitishda ham islohotlar o'tkazilib kelindi. Avvalgi eskicha usulda dars o'tish hozirgi davr zukko bolalarga to'g'ri kelmay qoldi. Sobiq sho'rolar davrida o'quvchilarga chet tilini o'qitishda ko'proq ingliz tili grammatikasiga etibor berilar edi. Dars davomida ko'proq yozma mashqlar bajarilib og'zaki muloqotga kam e'tibor berilar edi. Bundan tashqari har bir darsga mo'ljallangan leksikumga mo'ljallangan mashqlar juda oz berilar edi. Bundan tashqari o'quvchilarni ruhiy holatlarini hisobga oluvchi usullar to'g'risida gapirilmas edi.



Chet tilini o'qitishdagi yangi so'z va iboralarni o'qitish ham muhim rol o'ynaydi. Ilgari an'anaviy usulda yangi so'zlarni o'qitishda so'zlar yozuv taxtasiga yozilib, ularning tarjimalari o'qituvchi tomonidan aytib berilar edi va o'quvchilardan ular asosida gaplar tuzishlari talab etilar edi. Hozirda bu usul hech qanday samara bermaydi. Dars davomida yangi so'zlarni tarjimasisiz yozuv taxtasiga yozganidan so'ng o'qituvchi ularni qanday ma'no anglatishini ingliz tilida tushuntiradi. Shuningdek past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni imkoniyatlarini hisobga olgan holda rasmlardan foydalanan tushuntirishi kerak. Shundagina past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga ham tushunarli bo'ladi. Odatda past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni darsga jalb qilish qiyinroq kechadi. Ularga tushunarli bo'lishi uchun berilgan yoki yangi o'zlashtirilgan so'zni ishlatib, muloqot qilish darsdagi faol o'quvchilar bilan bajarilib so'ngra past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ham amalga oshirilishi kerak. Shundagina yangi leksika ustidagi ishslash deyarli barchaga barobar samara beradi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga tizimli yondashishni kuchaytirish zaruriyat bo'lib turibdi. Buning uchun nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg'unlashtirish kerak bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning tizimli yondashuvlari muammolari izchil o'rganilib borilishi, ularning yechimlari topilishi va ommalashtirilishi bu jarayondagi pedagogik amaliyotning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'rida"gi Qarori.// "Xalq so'zi" gazetasi. 2020 yil 7 noyabr soni.
2. Tojiboeva Gulmira RIFOVNA, Pulatova Dildora TURGUNOVNA. Pedagogik kompetentlik:
3. Nazariya va amaliyot. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 209-215.
4. Karimjonov Alijan, Jabborova Onakhon Mannapovna. Improvement of claster training



5. Academicia An international multidisciplinary research journal, Kurukshetra
6. Jabborova Onaxon Mannapovna, Umarova Zuhra Abduraxmanovna. Pedagogical
7. conflicts in primary school students - as an important social-pedagogical problem. Solid State Technology, Great Britain, 2020, Issue pp.235-241.
8. Abdullayeva B.P., Abdullayev F. Organization Of Swimming Lessons In Preschool Institutions. The american journal of social science and education innovations. July 2020